



**MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH  
TENDENSIYALARI: INNOVATSIYA, TA'LIM,  
TAJRIBA VA KADRLAR TAYYORLASH  
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
2023-YIL 9-10 IYUN**

---

**ТЕНДЕНЦИИ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА  
ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:  
ИННОВАЦИЯ, ОБРАЗОВАНИЯ, ОПЫТ И  
ПОДГОТОВКА КАДРОВ  
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
9-10 ИЮНЯ 2023-ГОДА**

---

**TRENDS IN IMPROVING THE QUALITY  
OF PRESCHOOL EDUCATION:  
INNOVATION, EDUCATION, EXPERIENCE  
AND PERSONNEL TRAINING  
THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE  
JUNE 9-10, 2023 YEAR**

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. Bosh assambleyaning 1989-yil 20-nyabrdagi 44/25-sonli rezolyusiyasi bilan qabul qilingan.
2. 2020-yil 29-maydagi PQ-4736-sonli "Bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.05.2020 y., 07/20/4736/0680-son
3. Raxmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T.: O'qituvchi, 1990.
4. Dr. Smriti Swarup. Education of children with special needs National Council of Educational Research and Training, 2006. 11-13.

## **INKLYUZIV TA'LIMNI SAMARALI TASHKIL ETISHNING KLASTER YO'NALISHI VA UNGA BILDIRILGAN MULOHAZALAR**

**M.G'.Dehqonova**

*CHDPU "Maxsus pedagogika kafedrası"  
o'qituvchisi*

Bugungi kunda inklyuziv ta'lim jarayoni haqidagi ilmiy-nazariy g'oyalar xilma-xil bo'lib, inklyuziv ta'lim to'liq standartlar asosida joriy etish yuzasidan aniq va tayyor o'qitish modellari mavjud emas. Shuningdek, ta'lim muassasalarida inklyuziv jarayonni rivojlanishini konstruktiv tavsiflash imkonini beruvchi mexanizmlar to'liq shakllantirilmagan.

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalar uchun o'quv mashg'ulotlarga tez moslashish elementlarini o'zida shakllantirgan trening mashg'ulotlar majmuasini tashkil etish, uni qo'llash faoliyatini amalga oshirish yuzasidan ilg'or pedagogik texnologiyalar dasturini ishlab chiqish zarur. Inklyuziv

ta'lim jarayonida maxsus o'quv sharoitlarini yaratish, ularni amaliyotga joriy etish, har qanaqangi ziddiyat va ijtimoiy muammolarni chetlab o'tgan holda har bir imkoniyati cheklangan bolalarni, nogironlik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'qitish uchun o'quv dastur va o'quv-uslubiy rejalarini shakllantirish kerak. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni rivojlantirishning klaster modeli inklyuziv ta'limni ta'minlaydigan mas'ul va manfaatdor vazirlik va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni zamonaviy pedagogik, hamda tashkiliy masalalarini taqozo etadi. Inklyuziv klaster sub'ektlarining o'zaro va o'z-o'zini rivojlantirishi, mavjud muammo ustida ishlash jarayonida barqaror hamkorlikni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon inklyuziv ta'lim ishtirokchilarni ham, klasterning ham o'ziga xos afzalliklarini yuzaga chiqaradi.

Inklyuziv ta'lim klasteriga quyidagi vazirlik (korxonalar va tashkilotlar) tarkibiy bo'limlarini jalb qilinishi mumkin: Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, Moliya vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Bola huquqlari bo'yicha vakil, Bosh prokuratura, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklar. Inklyuziv ta'limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik omillarini o'rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasi tahlili shuni ko'rsatdiki, bu jarayon ko'p funksiyali xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Tadqiqotchi N.M.Nazarova nuqtai nazaricha inklyuziv ta'limda ijtimoiy-pedagogik yondashuv, imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ning tabiati va hissiy hayoti tajribasini ijtimoiy jihatdan aniqlashga va yo'naltirishga xizmat qiladi.

Ta'kidlash lozimki, inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ga shaxsiy yondashuv jarayoni orqali ijtimoiy integratsiyani yuzaga chiqarib, ijtimoiy muhit bilan faol kommunikativ o'zaro ta'sirga yo'naltiradi, hamda olingan bilim va ko'nikmalar muvofiqligini ta'minlaydi.

Inklyuziv ta'lim tushunchasi interaktiv yondashuv orqali amalga oshiriladigan ekzistensializm, pragmatizm, postmodernizm, fenomenologiya kabi falsafiy g'oyalari bilan ifodalanadi. Aynan shu yondashuvni tadqiqotchi N.M.Nazarova xorijiy pedagogikada inklyuziv ta'limning nazariy va uslubiy asosini tashkil etadi, deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi A.V.Suvorovning ta'kidlashicha, har qanday ta'lim, shu jumladan inklyuziv ta'lim imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)ni o'qitishda ijtimoiy-madaniy omillarga asoslantirilishi lozim. Ta'lim jarayonida madaniyat o'zlashtirilmaydi, balki qayta yaratiladi. Hayot davomida o'z-o'zini tarbiyalash shaklida ideal tarzda davom etadigan ta'lim jarayoni natijasida har bir kishi o'ziga xos, individual madaniyat namunasini rivojlantiradi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish va jamiyat hayotiga joriy etishda eng qiyin masalalardan biri odamlarning ongi va dunyoqarashidagi nostandart fikr- mulohazalarni muvofiqlashgan tizimga keltirishdir. Inklyuziv ta'limning nazariy va uslubiy, hamda amaliy asoslarini yaratish, amalga oshirish mexanizmlarini zamon talabiga mos shakllantirish jarayonlari bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda bayon etilgan fikrlarni yetarlicha xilma-xilligini hisobga olgan holda, jamiyat munosabatini insoniylashtirish va imkoniyati cheklangan bola (o'quvchi)larni ta'lim olish huquqini ta'minlovchi ijtimoiypedagogik asoslarini PTIK doirasida muvofiqlashtirilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'iyosiddinova D. M. 4+2 ta'lim tizimidagi o'rni. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2022, 2(10), 389-393.
2. G'iyosiddinova D. M. Logopedik mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda artikulyatsion gimnastika o'rni. Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 2022, 2(10), 360-365.
3. G'iyosiddinova D. M. Maktabgacha yoshdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda korreksion ishlarning ahamiyati. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 2022, 475-471.

### **INKLYUZIV TA'LIM TIZIMIDA O'QUV-TARBIYA JARAYONINING TASHKIL ETILISHI, KO'RISHIDA VA ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR INKLYUZIV TA'LIMIDA SINFLARNI VA DARS JARAYONINI MOSLASHTIRISH**

**M.I.Haydarova**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti  
katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

**M.V.Boltaxo'jayeva**

*Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi*

Inklyuziv ta'lim (ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion - uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminasiyani) bartaraf etish, maxsus ta'limga muxtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan, harakat muvozanati buzilgan, o'z-o'ziga xizmat qila oladigan yengil darajasidagi aqli zaif, nutqida nuqsoni bo'lgan (muloqoti cheklanmaydigan darajadagi), zaif ko'ruvchi bolalar va o'smirlar, zaif eshituvchi va kech (5 yoshdan keyin) kar bo'lgan, ko'zi ojiz (brayl yozuvi va o'qishni egallagan) bolalar va o'smirlar, zaif ko'ruvchi ko'rish qobiliyati (04 darajagacha) bo'lgan, kar (muloqot darajasida nutqi bo'lgan, o'qish va yozishni egallagan) bolalar va o'smirlar inklyuziv ta'limga jalb etiladi.

Inklyuziv ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi:

- Inklyuziv ta'lim tashkil etilgan barcha umumta'lim maktablarda imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarga nisbatdan do'stona munosabat ruhiy shakllanadi.
- Inklyuziv ta'limni amalga oshirayotgan umumta'lim maktablarida davlat ta'lim standartlariga ilova sifatida imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun korreksion dasturlar ham inobatga

<b>Toshpo‘latov N.M.</b> Maktabgacha ekologik ta‘lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyati	107
<b>Umataliyev Z.A.</b> Pedagogika kollejlarda tarbiyachilarni tayyorlashda dasturiy vositalardan foydalanish jarayonining muhim jihatlari	109
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini innovatsion boshqarish tamoyillari	110
<b>Xamdamova N.I.</b> Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish tizimini joriy etish	112
<b>Xaydarova R.A.</b> Maktabgacha ta‘lim tizimi mutaxassislarning innovatsion faoliyatga moslashuvida raqamli savodxonlikning ahamiyati	113
<b>Xaydarova S.S.</b> Maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbar kadrlarining kasbiy kompetentligini oshirish	115
<b>Xodiboyeva Sh.U.</b> Maktabgacha ta‘limda menejment, zamonaviy yondashuv va samarali shakllar	116
<b>Калирова Д.Н.</b> Особенности организации образовательной деятельности в пяти центрах развития по государственной программе «Илк кадам»	118
<b>Танярикова Д.Г.</b> Развитие информационной компетентности учителя: современные требования и вызовы	119
<b>Тухфатуллина Л.Ф.</b> Взаимодействие дошкольной образовательной организации и семьи	121
<b>Умарова Р.Р.</b> Управленческие инновации - необходимое условие модернизации образования	123
<b>Хайдаров Р.Ю.</b> Влияние использования цифровых технологий на улучшение качества работы дошкольных организаций	126
<b>Хайдаров Р.Ю.</b> Роль цифровых технологий в улучшении качества образования в дошкольных организациях	127
<b>2-sho‘ba:</b>	
<b>Madraximov B.</b> Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari direktorlarining xuquqiy kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	129
<b>Akhmetova N.S.</b> Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishning muhim jihatlari	135
<b>Raximova S.S., Ro‘ziyeva Sh.M.</b> Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirishning zamonaviy usullari	137
<b>Ro‘ziyeva Sh.M.</b> Bolalarning ratsional ovqatlanish va uning inson salomatligi uchun roli haqidagi bilimlarini boyitish va kengaytirish	139
<b>To‘xtasinova O.R.</b> 3-4 yoshli bolalarni sog‘lom ovqatlanish orqali gigienik ko‘nikmalarini shakllantirish	141
<b>3-sho‘ba:</b>	
<b>Arslanova M.M.</b> Maktabgacha inklyuziv ta‘limning pedagogik tamoyillari	144
<b>Asadullayeva M.A., Rizayeva F.F.</b> Inklyuziv xizmat ko‘rsatishda ta‘lim berish, tarbiya berish va rivojlantirish muammolari	146
<b>Dehqonova M.G’.</b> Inklyuziv ta‘limni samarali tashkil etishning klaster yo‘nalishi va unga bildirilgan mulohazalar	148
<b>Haydarova M.I., Boltaxo‘jayeva M.V.</b> Inklyuziv ta‘lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishi, ko‘rishida va eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar inklyuziv ta‘limida sinflarni va dars jarayonini moslashtirish	149
<b>Karimova F.A.</b> O‘zbekistonda maktabgacha inklyuziv ta‘limning rivojlanish istiqbollari	151
<b>Nurmatova Sh. Sh.</b> Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning inklyuziv ta‘lim olish tizimi	152
<b>Nurmatova Sh. Sh.</b> Uy ta‘limining amaliyotga tadbiiq etilishi	154
<b>Panferova I.V., Fazilova N.M.</b> Additional educational programs for children with special needs	155
<b>Po‘latxo‘jayeva M.M.</b> Alohida yordamga muhtoj bolalarning parvarishida tibbiy psixologiyaning o‘rni	157
<b>Rasuleva D.Ya.</b> Uzluksiz ta‘lim jarayonida inklyuziv ta‘lim uzviyligini ta‘minlash tamoyillari	159